

O'ZBEK VA INGLIZ TILLARINING YOLG'ON MULOQOTDAGI PARALINGVISTIK INDIKATORLARI

Mamajonova Nargiza Baxtiyor qizi

Erkin tadqiqotchi

Email: gayratnargiz93@gmail.com

Annotatsiya: Usbu maqolada yolg'onne paralingvistika nuqtai nazaridan o'rghanishning nazariy asoslari keltirilgan. Yolg'onning tashkiliy mezonlari ajratib ko'rsatiladi, yolg'onning tuzilishi va funksiyalari tahlil qilinadi. Maqolada soxta nutq aktini amalga oshirish shartlari va qoidalari belgilanadi va tasniflanadi.

Kalit so'zlar: yolg'on, yolg'on nutq harakati, manipulyatsiya, taklif va nomaqbul ko'rsatkichlar, buzilish, kommunikativ va so'zlashuv ta'siri.

Annotation: The article presents the theoretical foundations for the study of deceptive from the perspective of paralinguistics. The constitutive criteria of deception are singled out, the structure and functions of deceptions are analyzed, conditions and rules for the implementation of a false speech act are established, classified false speech acts.

Keywords: deception, false speech acts, manipulation, propositional indicators, violation, communicative and conversational implicatures.

Аннотация: В статье представлены теоретические основы изучения лжи с позиции паралингвистики. Выделяются конститутивные критерии лжи, анализируются структура и функции лжи, устанавливаются условия и правила осуществления ложного речевого акта, классифицируются ложные речевые акты.

Ключевые слова: ложь, ложный речевой акт, манипуляция,

пропозициональный показатели, коммуникативная и конверсационная импликатуры.

Kirish (Introduction): Yolg’onni ta’riflash va ularning paralingvistik nazariyasini yaratishning lingvistik tavsifiga yondashishlar asosan xorijiy olimlar tomonidan amalga oshirilgan. Asosan, “Haqiqat orqali amalga oshiriladigan yolg’on taksonomiyasini saqlash” [Vincent 1981], “Aldamchi nutq harakatlarining turlarini aniqlash” [Falkenberg, 1982], “Yolg’onning tipologiyasi” [Giese, 1992], “Yolg’on turlarini tizimli belgilash” [Castelfranchi, 1994]. Ko’rinib turibdiki, barcha yondashuvlar yolg’on bayonotni uzatishning asosiy aniq turlarini, shakllarini, ularning keyingi tasnifi bilan tanishish, shuningdek, yolg’on nazariyasini qurish tamoyiliga asoslanadi. Keyinchalik tilshunoslikda bunday tushunchalarni ta’riflashda va o’rganishda yangi sohalar kirib keldi. Yani, tilshunoslikning to’rt yirik yo’nalishi- semantik, pragmatik, pragmalingvistik va paralingvistik tahlil qilish olimlarning tadqiqotda yangicha yondashishga undadi. Bundan tashqari, bir qator fanlardan, jumladan, psixologiya, kriminlogiya va amaliy tilshunoslik kabi sohalar lingvistik va aldashning paralingvistik ko’rsatkichlari ko’plab tadqiqotchilarining ilmiy qiziqishi bo’lib kelgan.

Paralingvistik ko’rsatkichlar- bu nutqqa hamroh bo’ladigan xususiyatlar, masalan, yuz ifodalari, imo-ishoralar, tana harakatlari, ovoz, artikulyatsiya va boshqalar. [1, 91b] Yolg’onni aniqlash ustida ishlashda duch kelishi mumkun bo’lgan qiyinchilikdan biri bu turli mamlakatlar va madaniyatlarda aldamchi xatti-harakatlarda bo’lgan farqlardi. Ingliz tilida aldash ko’rsatkichlari farqi borligi uchun boshqa tillarda qo’llash mumkun emas. Madaniyatga hos aldash ko’rsatkichlarini koreys tilida [2], Xitoy [3] va italiyan [4] tillarida ingliz tilini o’z

ona tillarida so'zlashuvchilar bilan taqqoslab tasvirlaganlar. Biroq, butun madaniyatlararo aldamchi nutq til farqlar korpusi hali ham ko'pchilik haqida muhim ma'lumotlarga ega emas. Ushbu tadqiqot o'zbek tili asosidagi yolg'on muloqotning lingvistik, prosodic va akustik ko'rsatkichlarning umumiyligi ko'rinishini ifodalaydi.

Tadqiqot metodologiyasi (Methodology): Biror kishining nutqini tahlil qilganda, ular xotirjam va xavotirsiz holatlarida bo'lgan nutq uslablarini hisobga olish kerak. Chunki, insonlarning odatiy nutqida shubxali nutq parametrlari (masalan, ko'p sonli pauzalar, qochqin javoblar, ovoz balandligi o'zgarishi) bilan yolg'on nutq ko'rsatkichlarini belgilab berishi mumkun. Hissiy jihatdan neytral psixologik holat muayyan dinamik uchun ovoz balandligi parametrlarini bilsa bo'ladi. [1,24b]

Asrlar davomida yolg'onni aniqlashda ovoz va nutq orqali aniqlashga yuzlab urunishlar qilingan. Masalan, qadimgi Hindistonda gumonlanuvchini so'roq jarayonida ularning javoblari bilan bir vaqtida urishi kerak edi. Savolga javob berayotgan paytida yolg'onlari fosh bo'lishidan qo'rqb, ayblanuvchi stress yoki asabiylashadi va shu sabab ichki tushkunlikka tushib qolishadi bu orqali yolg'onni fosh etilishi tezlashadi. Shuning uchun jismoniy holat insonning psixologik holati bilan chambarchars bog'liq holat deb inkor etib bo'lmaydi. Yolg'onchi yolg'on gapiresh jarayoni boshdan kechirgan chalkashlik va ichki qiyinchiliklar bilan tavsiflanadi. Yolg'onchining ongida ikkita parallel hodisa yoki bir xil hodisaning ikkita varianti mavjud. Yolg'onchi haqiqiy va yorqin narsani hohlaydi, ikkinchisi esa hayoliy va rangpar hodisa haqida gapirmoqchi bo'ladi. Yolg'on tafsilotlari aytishda yolg'onchi odam o'z ishida chalkashmasligi va ilgari aytgan hikoyalar tafsilotlarini takrorlash kerak. Bundan tashqari ilgari aytigan ma'lumotlarni ba'zi haqiqat ma'lumotlarga zid bo'lganda yolg'onchi

doin taslim bo'lish orqali fosh bo'lish havfini tug'diradi. Shuning uchun, his tuyg'ularni, ayniqsa, fosh bo'lish qo'rquvini hisobga olish aldovni aniqlashda kata ahamiyatga ega. Yolg'on gapiryotganda inson o'zini qanday tutishidan ko'ra , nima deyotganiga e'tibor qaratadi (bunda barcha mimikalarni, imo-ishoralarni tayyorlash va o'rganish qiyin ish, intonatsiyani oldindan ehtiyyotkorlik bilan bajarish kerak. Odatda, professional aktyorlar tomonidan yaxshi bajariladi). Bundan tashqari, inson tanasida hissiyotlar va og'zaki bo'lмаган reflex aloqalar mavjud va ularni umulashgan holda nazorat qilish juda qiyin [3,21].


So'zlovchining nutq parametrlari nazoratga olingan(ichki) va nazoratdan chiqqan(tashqi)ga bo'linadi. Nazorat darajasi ma'ruzachining notiqlik qobiliyatiga, nutq va artikulyatsiya jarayonida atrofdagilarning munosabatiga bog'liq bo'ladi. Biroq so'zlovchining autonomik nerv sistemasini nazoratga olib bo'lmaydigan faktorlar kabi bir nechta faktorlari mavjud [5]. Yolg'onning nutqida uni nazorat qilishning ham oson va qiyin jihatlari bor. Inson o'z fikrini nazorat qilib uni yozma va og'zaki nutqda namoyon qila oladi va o'rganadi [6].

Jinoyat sudlari yoki so'roq stenogrammasi kabi haqiqiy aniqlash materiallari yo'qligi sababli ,aldash, juda qiyin tadqiqot sohasidir, chunki bunday ma'lumotlar odatda maxfiy va kirish imkonsizdir.


Olga Lkova va Denis Gordeev tadqiqotida 12 soatlik audioyozuvni segmentlarga bo'lish yo'li bilan olingen 108ta nutq fragmentlarining chastota spektrini tahlil qilish asosida o'tkazilgan. Bunda eksperimentning ikkinchi istirokchi bilan bo'lgan intrevyularini ifodalaydi. Barcha ishtirokchilar ayollar bo'lib, ularning yoshi 25 yoshdan kichikdir. Subyektlarda yolg'oni aniqlash bo'yicha maxsus tayyorgarlik yo'q. Mutahassis suhbatdan oldin sub'yeqtan oldin subyektning hayotiga oid ba'zi shaxsiy ma'lumotlarni bilar edi va ikkinchisi bu ma'lumotni boshqa hech kimga oshkor qilishni hohlamadi. Bu suxbatni boshqalar

bilmasligini hisobga olib ba’zi savollar aynan shu mavzuda berildi. Tadqiqot yuz ifodalari, imo-ishoralari yoki pozitsiyalarini tahlil qilish uchun mo’ljallanmaganligi sababli, suhbатdoshni ko’zlarini boshqasiga o’tkazmaslik uchun subyektning orqasida o’tirdi, shu bilan yolg’on gapirishga va hotirjamlikka tayyorlanish uchun vaqt topadi. Yakuniy namunada sub’yektning “yo’q” javobining 108 nutqda mavjud bo’lib, ulardan 60tasi haqiqat va 48tasi yolg’on. Har bir ‘yo’q” degan paytida spektogrammada shunday tovushlar paydo bo’ladi va bu to’lqinlar haqiqatdan “yo’q” degan so’zdan chiqayotgan to’lqinlardan farq qiladi.[7,8b]

Ushbu uskuna rossiyalik olim va universitet professori V.Jenilo tomonidan yaratilib, uskuna nomini “masterskaya zvukov”(“Signal” ustaxonasi”) deb nomланади. Unda asosan fonologiya, akustika va sud lingvistikasini o’rganib, undan ko’p yillar davomida foydalananib kelinmoqda. Ushbu dastur sifatida chastota bo’yicha aniq o’lchovlarini olish imkonini beradi.



1-rasm: So’zlovchining haqiqatdan “yo’q” degan javobining spektogrammasi.



2-rasm: So'zlovchining yolg'ondan "yo'q" degan javobining spektogrammasi.

Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, yolg'on gapirganda ovoz balandligi chastotasining oshishi nafaqat ingliz tilida, balki boshqa tillarda ham ovozning balandligi oshishi hosdir. Ushbu qurilma yolg'on muloqotni aniqlashning yorqin isboti bo'lishiga qaramay, aynan P.Ekmanning tadqiqot ishlari muloqotda yolg'onnei aniqlash bo'yicha modellashgan tajribalari ko'p.[6]

Ushbu ilmiy izlanish keljakda madaniyatlararo yolg'on nutq turlari va ularni aniqlash usullarini ishlab chiqishga o'z hissasini qo'shish mumkun.

Conclusion(Hulosa): Faqatgina lingvistik usullardan foydalangan holda yolg'onnei aniqlash mumkun emas, chunki ko'pchilik odamlar aytganlarini nazorat qila oladilar. Shu munosabat bilan akustikaning raqamli tahlili yolg'onnei aniqlashda parametrlari juda istiqbolli. So'zlovchinig nafaqat gaplarini balki uning yuz ifodalarini, tana harakatlarini va uning ovozini tahlil qilish kerak. Ushbu maqola yolg'onnning paralingvistik, prosodik va akustik ko'rsatkichlari bo'yicha ma'lumotlarini olish imkonini berdi. Aniqlanish natijasida o'zbek tili fani uchun ancha yangi va yetarlicha o'rganilmagan tadqiqotlar uchun namuna bo'la oladi degan umiddamiz.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Потапова Р. “Язык, речь, личность”. Москва: Языки славянской культуры- 2006
2. Feldman R. “Nonverbal disclosure of deception in urban Koreans. Journals of Cross-cultural Psychology”10(1)73-83 p
3. Cody M.J. “Telling lies: Correlates of deception among Chinese. Recent advance in social psychology: An international perspective. 359-368p
4. Spence K. “Markers of deception in Italian speech. Front. Psychology 3, 453p
5. Potapova R. “Rechevaya kommunikatsiya. Ot zvuka k vyskazyvaniyu” Moscow: Yaziki slavyanskoy kulturu.
6. Ekman P. “Psixologiya I jizn”
7. Olga Lkova “Paralinguistic indicators of lies in speech”- Lingvistika 2018